

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA QONUNLARI IJROSI USTIDAN JAMOATCHILIK NAZORATINI AMALGA OSHIRISH

Rajabboev Bahromjon Bobomurod o‘g‘li

*O‘zbekiston Respublikasi IIV, Toshkent shahar IIBB
Yunusobod tumani IIO FMB huzuridagi Tergov bo‘limi
tahlil va nazorat bo‘linmasi tergovchisi katta leytenant*

Annotatsiya

Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasida jamoatchilik nazoratini tashkil etishning konstitutsiyaviy-huquqiy, ilmiy-nazariy va amaliy asoslari, xalqaro huquq normalarining hamda qonunlarning bajarilishi ustidanjamoatchilik nazoratining shakllantirilishi va rivojlantirilishi bayon qilinadi. O‘zbekistonda jamoatchilik nazorati va monitoringini amalga oshirishning shart-sharoitlari va imkoniyatlari, jamoatchilik nazoratining maqsadlari, prinsiplari va sub’ektlariga alohida e’tibor qaratilgan.

Kalit so‘zlar: jamoatchilik nazorati, huquqiy norma, xalqaro huquq, prinsip, sub’ekt, qonun.

Annotation

This article describes the formation and development of constitutional-legal, scientific-theoretical and practical foundations of the organization of public control in the Republic of Uzbekistan, the formation and development of economic control over compliance with international law and the execution of laws. Special attention is paid to the conditions and possibilities of public control and monitoring in Uzbekistan, the goals, principles and subjects of public control.

Keywords: public control, legal norm, international law, principle, subject, law.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoevning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali majlisda qilgan ma’ruzasidan “Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak va bu haqiqatni, avvalo, barcha bo‘g‘indagi rahbarlar yaxshi tushunib olishi zarur” deb bejizga ta’kidlab o‘tmaganlar. Bu hozirgi davrda aynan isbotini topib turgan masaladir.

O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh. M. Mirziyoev “Afsuski, hozirgi kunda qonunlarning islohotlar samarasiga ta’siri yetarlicha sezilmayapti. Ularning ijtimoiy munosabatlarni bevosita tartibga solishdagi roli pastligicha qolmoqda” deb ta’kidladi. Jamoatchilik nazorati qonunga amal qilinishi ta’minlanishiga, davlat organlari tomonidan o‘z vazifalarini mas’uliyat bilan va malakali bajarishlari imkonini beradi. Jahon tajribasi jamoatchilik nazorati ham jamiyat, ham davlat hokimiyati uchun manfaatli ekanligini ko‘rsatadi. Haqiqatan ham bu davlatni mas’uliyatli bo‘lishga - qonun amal etishini ta’minlashga, insonning huquqlari va erkinliklarini hurmat qilish va himoya qilishga, demak umumiy manfaat yo‘lida samarali ish olib borishga majbur qiladi.

Jamoatchilik nazorati davlatga ham o‘zining muttasil takomillashishini rag‘batlantirish uchun manfaatlidir. **Birinchi**dan, jamoatchilik nazorati davlat

xizmatchilarining davlat hokimiyatining tabiati tufayli ularga hamisha xos bo‘lgan nohuquqiy qarorlar va ish ko‘rishlardan tiyilib turishiga da‘vat etdigan ta‘sirchan kuch sifatida namoyon bo‘ladi. Jamoatchilik nazoratining bosimi tufayli mansabdor shaxslar o‘z faoliyatiga o‘zgartirishlar kiritadi, mas‘uliyatliroq va natijada malakaliroq bo‘lishadi. **Ikkinchidan**, jamoatchilik nazorati jamiyatning hokimiyat bilan aloqa qilish vositasi sifatida namoyon bo‘lib, fuqarolarga mamlakatning maqsadlari va rivojlanish ustuvorliklari to‘g‘risida hokimiyat bilan halol va ochiq muloqot olib borishga yordam beradi. Davlat hokimiyati jamiyat bilan bunday o‘zaro aloqa qilish yordamida mavjud muammolardan xabardor bo‘ladi va fuqarolarning mamlakatda demokratik islohotlarni amalga oshirishga qaratilgan talablarini qo‘llab-quvvatlaydi. Uchinchidan, jamiyat ta‘siri ostida davlat samaraliroq ish olib boradi, bu bilan jamoatchilik nazorati fuqarolarning davlatga ishonchini va uni qo‘llabquvvatlashlarini ta‘minlaydi. Jamoatchilik nazorati vakolatli hokimiyat fuqarolarning konstruktiv takliflari asosida mamlakatda zarur islohotlarni o‘tkazishiga yo‘naltirilgan. Hozirgi paytda davlat va fuqarolarning bir-biriga qarshi turgan - boshqaradigan va boshqariladigan an‘anaviy modeli O‘zbekistonda besamar ekanini amalda ko‘rsatdi. Butun jahonda bo‘lgani kabi fuqarolik jamiyati institutlari tomonidan nazorat qilish funksiyalarini amalga oshirish ko‘zda tutiladigan davlat boshqaruvini takomillashtirish zarurati anglana boshlandi. Bunday tendensiya turli darajalarda o‘z ifodasini topmoqda. Buning uchun “Ochiq hukumat” tizimi yaratilmoqda. Jamoatchilik tashkilotlari siyosiy, huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va gumanitar-madaniy muhitning faol ishtirokchilariga aylanmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev ta‘kidlaganidek, “Yana bir inkor etib bo‘lmaydigan haqiqat borki, fuqarolarda ham islohotlarga nisbatan daxldorlik hissi shakllanishi kerak. Ana shundagina ko‘zlagan maqsadlarga erishib, oldimizga qo‘yilgan vazifalarning to‘liq uddasidan chiqamiz. Bu jarayonda kuchli va ta‘sirchan jamoatchilik nazoratining o‘rni beqiyosdir. Bu jarayonda kuchli va ta‘sirchan jamoatchilik nazoratining o‘rni beqiyosdir. Shu maqsadda kelgusi yildan boshlab “Jamoat fikri” portalini ishga tushirishga qaror qildik. Hammamiz yaxshi tushunamiz, jamoatchilik nazoratini amalga oshirishda ommaviy axborot vositalari g‘oyat muhim o‘rin tutadi. Men ommaviy axborot vositalari faoliyatini muntazam kuzatib boraman. Lekin, afsuski, islohotlar mohiyati, qabul qilinayotgan qonun va qarorlar ijrosi bilan bog‘liq muammolar, aholi murojaatlari yuzasidan gazeta, tele va radiokanallarda tanqidiy maqola, ko‘rsatuv va eshittirishlar juda kam”.

Fuqarolik jamiyatini shakllantirish monitoringi bo‘yicha mustaqil institut tadqiqotlariga ko‘ra, keyingi 4 yil davomida so‘rov o‘tkazilgan NNTlarning 72% da normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari jamoatchilik muhokamasida ishtirok etgan. NNTning faollari 40 tadan ko‘proq faoliyat olib borayotgan davlat rahbari va hukumat qarorlariga muvofiq tashkil etilgan respublika idoralari komissiyalari, kengashlari, ishchi guruhlarining a‘zolari hisoblanadi. NNT va davlat organlarining birgalikda tadbirlarni tashkil etishlari keng ommalashmoqda. Bunda ana shunday tadbirlarni o‘tkazishning tashabbuskorlari ko‘proq nodavlat notijorat tashkilotlari (71%) bo‘lmoqda. Nodavlat notijorat tashkilotlari tomonidan 85 ta normativ-huquqiy hujjat loyihasining jamoatchilik ekspertizasi o‘tkazilib, ularni ko‘rib chiqish yakunlari

bo'yicha tegishli organlarga amaldagi qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha 1320 ta taklif taqdim etilgan. 4,6 mln. dan ko'proq odam NNTning ish bilan bandlikni ta'minlash, yoshlar va ayollarga axborot, uslubiy, ta'lim va boshqa xizmatlaridan, shuningdek, aholining eng nochor tushunchalariga ruhiy va moddiy yordam ko'rsatishlaridan foydalangan.

Jamoatchilik nazoratini huquqiy tartibga solishning zarurati quyidagi holatlar bilan bog'liqdir. Jamoatchilik tashkilotlari nazoratni amalga oshirar ekan, vakolatlari va faoliyat olib borishlarining tartibi qonunchilik bilan belgilanadigan davlat boshqaruvi organlari bilan o'zaro munosabatlarga kirishadi. Nazorat qilishning ushbu shakli sub'ektlarining nazorat ostidagi ob'ektlar bilan o'zaro munosabatlarida jamoatchilikning boshqaruv apparati faoliyatiga ixtiyoriy “bostirib kirishi” tufayli uning ishini izdan chiqarishlariga yo'l qo'ymaslik uchun huquqiy normalar bilan tartibga solinishi kerak. Zero, jamoatchilik tuzilmalarining davlat apparatiga ta'sir o'tkazishi mansabdor shaxslarning topshirilgan ish uchun mas'uliyatini oshirishi, ammo davlat organlarining funksiyalarini jamoatchilik tashkilotlari tomonidan noqonuniy ravishda o'zlashtirmasligi, ularni kamsitmasligi kerak. Huquqiy tartibga solish nazorat faoliyatini puxta tashkil etish uchun ham zarur: nazorat ishida parallellikka va bir-birining ishini takrorlashga yo'l qo'ymaslik uchun huquq normalari yordamida davlat va jamoatchilik nazoratining sohalarini chegaralanadi.

Jamoatchilik nazorati to'g'risidagi qonunchilikni shakllantirish ikki yo'nalishda: **birinchidan**, O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunlariga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish; **ikkinchidan**, jamoatchilik tashkilotlarining nazorat funksiyalarini tartibga soladigan yangi qonunlar qabul qilish orqali olib borilmoqda. Bu ishda jamoatchilik nazorati va fuqarolik jamiyatini shakllantirishning chet el tajribasi diqqat bilan o'rganilmoqda.

Hozirgi paytda davlat organlarining qonunchilik tomonidan belgilab qo'yilgan chegaralarda jamoatchilik fikriga bog'liqligining mexanizmlari va tartiblari yaratilmoqda. Qonun davlat organlarining faoliyati jamoatchilik ehtiyojlari va manfaatlariga muvofiqligini baholash mezoniga aylanmoqda, shuningdek, jamoatchilik fikri tomonidan amalga oshiriladigan nazoratning hajmi, mazmuni oqibatlarini belgilab bermoqda. Nazorat huquqiga davlat organlarining jamoatchilik fikri tomonidan bildirilayotgan mulohazalari va takliflariga javob berishlari majburiyati mos tushadi. Bugungi kunda huquqiy tartibga solishning ko'pchilik sohalarida jamoatchilik nazoratining zarurati va muqarrarligidan dalolat beradigan huquqiy baza mavjuddir. Respublikaning qator normativ hujjatlari bevosita jamoatchilik nazorati sub'ektlarining faoliyatini tartibga solishga bag'ishlangan.

Jamoatchilik nazoratining asosiy usuli qonunchilik buzilishining oldini olish va huquqbuzarlarni tarbiyalashdir. Shu maqsadlarda tekshirishlar, jamoatchilik reydlari va ko'riklari, yig'ilishlar, kengashlar, anjumanlarda mansabdor shaxslar ma'ruzalarining muhokamasi, jamoatchilik takliflari bajarilishini tekshirishlar o'tkaziladi, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqiladi, jamoatchilik ta'sirini o'tkazish choralari qo'llaniladi va hokazolar. Bu ish to'g'risida radio, matbuot va televidenie orqali axborot berish katta ahamiyatga egadir.

Jamoatchilik nazorati uchun huquqbuzarliklarning oldini olish, tushuntirish va tarbiyaviy yo‘nalish xosdir.

Jamoatchilik nazoratini o‘tkazish ko‘nikmalarini egallash va samarali natijalarga erishishda fuqarolik jamiyati institutlari tomonidan davlat organlari faoliyati ustidan amalga oshiriladigan nazoratning tushunchasi, maqsadlari, vazifalari va prinsiplarini aniq anglab yetish muhim ahamiyatga egadir.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlab o‘tish lozimki, jamoatchilik nazorati inson huquqlarining jamoatchilik himoyasi shakllaridan biri hisoblanib, u O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga amal etilishi monitoringini o‘tkazish orqali davlat hokimiyati va boshqaruvi organlariga inson huquqlari va erkinliklari buzilishini aniqlashda yordam berish bo‘yicha fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari, OAV, bevosita fuqarolar va davlat organlari huzuridagi jamoatchilik kengashlarining faoliyatidir. Bu jamoatchilik va davlat organlari birgalikda O‘zbekistonda inson huquqlari va erkinliklarining davlat tizimiga kiradigan organlar faoliyatida Konstitutsiya va qonuniylik ustunligi prinsipini amalga oshirishga yordam beradigan ijtimoiy sheriklikning eng samarali shakllaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. <https://lex.uz/docs/6445147>
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 24 yilligi tantanali marosidagi nutqi. <https://archive.qalampir.uz/news/shavkat-mirziyoevning-konstitutsiyaning-24-yilligi-tantanali-marosimidagi-maruzasi-5011>
3. O‘zbekiston Respublikasining «Jamoatchilik nazorati to‘g‘risida» gi O‘RQ- 474 - son qonuni 12.04.2018 yilda qabul qilingan. <https://lex.uz/docs/3679092>
4. O‘zbekiston Respublikasi «Ichki ishlar organlari to‘g‘risida» gi Qonuni, 16.09.2016 yilda qabul qilingan O‘RQ - 407-son. <https://lex.uz/docs/3027843>
5. Qonun hujjatlari milliy bazasi.